



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

INGLIZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR

Yusupjanova Feruza Qurbanovna

gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasida katta o'qituvchisi

Mirzayeva Xusnidaxon Ravshanjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarni talabalarga o'qitishda uchrashi mumkin bo'lgan muammolar taxlil qilingan. Frazeologik birliklarni o'rganish jarayonida tilning milliy xususiyatlarini saqlab qolgan holda tarjima qilish, grammatik jihatdan gap strukturasi to'g'ri moslash usullari misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, turg'un so'z birikmalari, frazeologik ma'no, leksema, semantik xususiyat, affikslar

Abstract: In this article the problems that students may face in the process of learning English phraseological units are analyzed. Translating phraseological units by keeping language national features and the methods of adjusting sentence structure grammatically are expressed with examples in teaching phraseological units

Key words: phraseological units, stable word combinations, phraseological meaning, lexis, semantical feature, affixes

Абстрактный: В данной статье анализируются проблемы, с которыми можно столкнуться при обучении студентов фразеологизмам английского языка. В процессе изучения фразеологизмов на примерах иллюстрируются приемы перевода сохраняя национальных особенностей языка, грамматической коррекции структуры предложения.

Ключевые слова: фразеологизмы, устойчивые словосочетания, фразеологическое значение, лексема, семантический признак, аффиксы.

KIRISH

Bugun, globallashuv va texnika asrida, biror chet tilini o'rganish yoki biror chet tilida gapira olish zamon talabidir va til o'rganuvchilar soni tobora ortib bormoqda. Har bir til o'rganuvchi tilni o'rganish jarayonida turli frazeologik birliklar va ularni o'rganish, yodlash, tushinishda muammolarga duch keladi. Frazeologiyani bilish nafaqat nutqni ravonlashtiradi, balki badiiy adabiyotlarni o'qishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Frazeologik birliklardan oqilona foydalanish nutqni idiomatik qiladi. Shu bois, tilni, jumladan ingliz tilini, frazeologik birliklarni o'rganmasdan yaxshi bilish mumkin emas. Ammo, takidlab



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'tish kerakki, ingliz tilida frazeologik birliklarni o'qitishda til o'rgatuvchilar va o'rganuvchilar ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Ushbu maqolada bugungi kundagi ingliz tilidagi frazeologik birliklarni talabalarga o'qitishdagi muammolar va ularni bartaraf etish uchun ayrim yechimlar taxlil qilingan.

Frazeologik birliklar

Har bir tilning lug'at boyligi faqat yangi so'zlar yasalishigagina emas, balki iboralar, turg'un so'z birikmalari hisobiga ham son jihatidan, ham sifat jihatidan boyib boradi. Tildagi ana shunday turg'un birikmalar bilan shug'ullanuvchi fan-frazeologiya fanidir.

Frazeologiya yunoncha frases – ifoda, logos – ta'lim, turg'un xarakterga ega bo'lgan murakkab til birliklari haqidagi fan hisoblanadi. Longman taqdim etadiki: "the way that words and phrases are used in a language", [1, 2009] ya'ni fraza va leksemalar tilning muayyan bir qismini tashkil etishi va birgalikda ishlatilishini anglash mumkin.

So'nggi yillarda ko'plab tillar materiallari asosida olib borilgan keng ko'lamli frazeologik tadqiqotlar natijasida frazeologizmlar quyidagicha ta'riflanmoqda:

Ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, yaxlit frazeologik ma'no anglatuvchi turg'un til birligi frazeologizm yoki frazeologik birikma (ibora) deyiladi. Masalan, ingliz tilida:

- a feast or a famine ["katta omad yoki butunlay omadsizlik"];
- think on one's feet ["tezda tushunib yetmoq"; "darhol javob qaytarmoq"],
- put on the grill ["kirishib ketmoq", "qiynoqqa solmoq"];
- be (all) at sixes and sevens ["tartibsiz holda bo'lmoq, xaroba holda bo'lmoq"];
- set on six and seven, set on cinque and sice ["eng katta nomerga pul tikish ya'ni barcha narsani o'rta qo'yib tavakkal qilish"] kabi iboralari bunga misol bo'ladi[4,1967].

Frazeologik iboralarning tarjimasini o'rganishda talabalarining nutqi o'sishi bilan birgalikda, grammatik, leksik bilimlari ham mustahkamlanadi. Tarjima jarayonida o'quvchilar ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralar tarjimasini va ularni o'girishdagi leksik qiyinchiliklarni bartaraf etish hamda o'zbek tili va ingliz tili grammatik tafovutlarini ko'rib tanishadilar.

Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni talabalarga o'qitishdagi muammolar: tarjima va grammatika

Frazeologik iboralar tarjimasini juda muhim emas deb o'ylasak, xato qilgan bo'lamiz. Hozirda juda ko'p mamlakatlar bilan ijtimoiy iqtisodiy jabhalarda



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

aloqalar kuchayib borilishini hisobga olinadigan bo'lsak xorijliklarni yurtimizga tashrifi kun sayin ortib borayotganini etirof etamiz. Shunday ekan ularning tillaridagi barcha leksik qurilmalarni o'rganish va tarjima qilish ommalashib bormoqda.

Ingliz tilidagi frazeologik birikmalar o'ziga xos buzilmaydigan, bir xil tuzilishga ega bo'lganligi sababli tildagi idiomalarni boshqa tilga tarjima qilish, ularni o'rganish va nutq jarayonida qo'llash yoki bu frazeologik birliklarni talabalarga o'rgatish masalasi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir. Yuqorida takidlab o'tilganidek, Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'rganish va o'qitishdagi asosiy muammo bu – tarjima. So'zlarni, iboralarni, jummalarni va ayniqsa idiomalarni tarjima qilishga urinish ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qolaversa, ingliz va o'zbek idiomalarining shakl va ma'nodagi o'zaro farqlari tarjimini muammoli qiladi. Masalan, "hot under the collar" so'zma-so'z "yoqa ostidagi issiqlik" (yoqa tagida issiq) deb tarjima qilingan bo'lsa, "tepa sochi tikka bo'ldi" bu iboraning o'zbekcha variantidir (hair stand on end). Misoldan ko'rinib turibdiki, idiomalarning o'zlashtirilishidagi qiyinchilik shakl va ma'no jihatdan nomutanosiblik bilan bog'liq[5,2022].

Ko'plab talabalar idiomalarni ingliz tilidan boshqa tilga, xususan o'zbek tiliga tarjima qilishni juda qiyin deb hisoblaydilar. Tarjima qilishda iboraning mazmunini ifodalashgina emas, balki uslubiy maqsadni yodda tutgan holda uning obrazlilikini ham ko'rsatish muhimdir. Idiomalarni tarjima qilishda tarjimon mahalliy tilda ekvivalent atama topib, idiomalarning stilistik vazifasini saqlab qolgan holda, ularning mazmuni va obrazlilikini uzatishi kerak. Mahalliy tilda bir xil tasvir bo'lmasa, tarjimon "taxminan moslik" bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi. Frazeologik birliklarga misollar mavjud:

- At seventh hour – tepagi daqiqada, eng tepagi odamda.
- Beat swords into plow-shares – qilichlarni bolg'alab, omoch yasamoq, tinch mehnatga o'tmoq, tinch kunlarga yetib kelmoq.
- The breath of the nostrils – hayotiy zarurat, suv va havodek zarur.
- Cast one`s bread upon the waters - suvga non uloqtirmoq; tuzatishini o'ylamay biror ish qilmoq.
- The olive branch - zaytun shohi; tinchlik va osudalik timsoli.
- The root of evil -yovuzlikning ildizi; mol-dunyoga muhabbati.
- Heap coals of fire on somebody`s head -uyaltirmoq, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarmoq[2,2004].

Idiomalarning leksik, semantik va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish juda qiyin ish. Tillarning genetik kelib chiqishi nuqtai nazaridan ma'lumki, ingliz



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tilining tuzilishi o'zbek tilining tuzilishidan farq qiladi, ya'ni ular alohida til oilalariga mansub. Natijada turli tillarning grammatik tuzilmalari bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilida affiksalar, predloglar yoki jins toifalari mavjud emas. Ingliz tilida esa artikl, predlog va affiksalar mavjud, gap tuzilish strukturasi ingliz tilida butunlay farq qiladi.

Masalan, o'zbek tilida ibora ot bilan boshlanib, fe'l bilan tugaydi: "do'ppisini osmonga otmoq" - juda xursand.

Ingliz tilida esa odatda fe'l bilan boshlanib, ot bilan tugaydi: "think on one's feet" - "tezda tushunib yetmoq"; "darhol javob qaytarmoq"

Frazeologik birliklar ishtirokidagi gaplar tarjimasida jarayonida qo'shma gaplarni soddalashtirib tarjima qilish ko'proq tavsiya etilgan. Chunki talabalar sinonimik, tekstema, frazema kabi tarjima konstruksiyalaridan foydalanish ancha ularning bilish saviyalari va tajribalariga nisbatan qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shuning uchun soddalashtirish metodi frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonini osonlashtiradi. Talabalarga tarjima jarayonida so'z tartibini o'zgartirish kabi sintaktik transformatsiyaning nozik jihatlari tushuntirish tavsiya etilgan. Chunki ingliz va o'zbek tillarda SOV, SVO qoliplariga tegishli turli xil tipologik guruhlariga tegishli bo'lgani uchun bu nozik holatlar talabalarning nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Xulosa

Tilda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar shu xalqning butun tarixini, hayot yo'lini aks ettiradi, shuning uchun ham yozuvchilar ularga tez-tez murojaat etadilar. Frazeologik birliklar badiiy asar tilining shirali va ta'sirchan bo'lishida muqobil uslubiy vositadir. Bundan tashqari ular nutqni ravon va ta'sirchan bo'lishiga, idiomatik, obrazli bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois har bir ingliz tilini o'rganuvchilar frazeologik birliklarni o'rganishlari lozim va bu ularning nutqini ravonlashtiradi, shu tilda fikrlay olish, o'ylash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mayor, M. (2009) "The Longman Dictionary of Contemporary English", Pearson Education Limited, fifth edition.
2. Oxford Dictionary of idioms, edited by Judith Siefring (2004) second edition, New York Oxford University Press
3. Kunin A.V. Ikki tomonlama aktualizatsiya frazeologik stilistika tushunchasi sifatida / A.V. Kunin // Maktabda chet tillari. - 2014. - 6-son. - B.13-17.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

4. Kunin A.V. Rus va ingliz frazeologik birliklar lug'ati . 1967.- T.1. - 738с.; T.2. - 739-1264с. (АРФС).
5. Mirzayeva D. (2022) ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING KONTEKSTUAL MA'NOSI VA TARJIMA MASALALARINING XUSUSIYATLARI SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 820-823
6. Yo'ldoshev.B, "Frazeologizmlarning adabiy til normasi", T...O'TA, 1992,
7. Мирзаева, Д. И. (2017). АНАЛИЗ ДИСКУРСА УЧЕНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-2), 73-75.
8. Mirzayeva, D. (2019). THE CONCEPT OF" FRIENDSHIP" IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTIC CULTURE. Мировая наука, (11), 29-32.
9. Mirzaeva, D. I. (2020). THE ROLE OF PAREMIOLOGY IN THE LANGUAGE SYSTEM. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 245-251.
10. Yo'ldoshev B.O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDU, 2007. -108b.
11. Bushuy T.A. Phraseological Equivalentation as a problem of Contrastive Lexicography // Contrastive Linguistics.- Sofia, 1996. - №1.-P.30-35.
12. Mirzayeva, D. (2019). PROVERB AS A KIND OF PAREMIOLOGICAL FUND AND AS AN OBJECT OF LINGUISTIC AND METHODOLOGICAL RESEARCH. Мировая наука, (11), 33-36.
13. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3).
14. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1,)
15. <http://scholarzest.com>
16. <http://en.m.wikipedia.org>
17. <http://www.researchgate.net>